BOLALARDA YOLG‘IZLIK HISSI SHAKLLARINING KELIB CHIQISH SABABLARI

Norboyeva Zilola Kabulovna

KUIT magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bolalarda yolg‘izlik hissining psixologik xususiyatlari, uning shakllanish omillari va korreksiyalash usullari ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: yolg‘izlik, bola psixologiyasi, emotsional rivojlanish, ijtimoiylashuv, korreksiya.

Аннотация. В данной статье на основе научного подхода анализируются психологические характеристики одиночества у детей, факторы его формирования и методы коррекции.

Ключевые слова: одиночество, детская психология, эмоциональное развитие, социализация, коррекция.

Abstract. This article analyzes the psychological characteristics of loneliness in children, its formation factors and correction methods based on a scientific approach.

Keywords: loneliness, child psychology, emotional development, socialization, correction.

Zamonaviy psixologiya fanida yolg‘izlik hissining shakllanish sabablari ko‘pincha ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilmasligi bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Insonning ijtimoiy aloqalarga bo‘lgan ehtiyoji uning asosiy psixologik ehtiyojlaridan biri hisoblanadi. Ushbu ehtiyojlarning yetarli darajada qondirilmasligi shaxsda emotsional noqulayliklarni yuzaga keltiradi va bu holat o‘z navbatida yolg‘izlik hissining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Bolalarda yolg‘izlik hissining shakllanishini tushuntirishda biologik omillarni ham e’tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Ayrim ilmiy tadqiqotlarda shaxsning temperament xususiyatlari uning ijtimoiy faollik darajasiga ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlangan. Masalan, flegmatik yoki melanxolik temperamentga ega bolalar ko‘pincha ijtimoiy muloqotdan qochishga moyil bo‘lishi mumkin. Ushbu holat esa ularda yolg‘izlik hissining shakllanish ehtimolini oshirishi mumkin [1].

Ilmiy manbalarga ko‘ra, psixologik omillar ham alohida o‘rganiladigan muhim yo‘nalish sifatida qaraladi. Shaxsning o‘z-o‘zini baholash darajasi, emotsional barqarorligi va kommunikativ qobiliyatlari yolg‘izlik hissining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. O‘z-o‘zini past baholashga ega bo‘lgan bolalar ko‘pincha tengdoshlar bilan muloqot qilishdan qochishga moyil bo‘ladilar. Bu esa o‘z navbatida ularda yolg‘izlik hissining kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, yolg‘izlik hissining shakllanishi shaxsning tashvish darajasi bilan ham bog‘liq bo’ladi. Yuqori tashvish darajasiga ega bolalar yangi ijtimoiy vaziyatlarga adaptasiyada qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bunday bolalar o‘zlarini tengdoshlar orasida noqulay his qilganliklari sababli ijtimoiy faoliyatdan chekinishga moyil bo‘ladilar, natijada ularda yolg‘izlik hissi kuchayadi.

Yolg‘izlik hissining shakllanish sabablarini o‘rganishda ijtimoiy omillar ham muhim o‘rin tutadi. Ilmiy adabiyotlarda oilaviy muhitning sifati bolalarda turli emotsional holatlarning shakllanishida muhim rol o‘ynashi ta’kidlangan. Ayniqsa oiladagi psixologik muhit bolalarda yolg‘izlik hissining shakllanishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi [2.]

Shu nuqtai nazaridan qaraganda, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi emotsional munosabatlarning sifati bolalarning psixologik rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Agar ota-onalar bolaga yetarli darajada e’tibor bermasa yoki uning

emotsional ehtiyojlarini qondirmasa, unda bola o‘zini yolg‘iz his qilishi mumkin. Ayniqsa ish bilan band bo’lgan ota-onalarda bolalar bilan muloqot vaqtining kamayishi ushbu muammoning kuchayishiga olib keladi.

Oilaviy tarbiya uslublarining ham yolg‘izlik hissining shakllanishiga ta’siri bo’ladi. Haddan tashqari qattiqqo‘l yoki befarq tarbiya uslublari bolalarda emotsional noqulayliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Demokratik tarbiya uslubi bolalarning emotsional rivojlanishi uchun eng qulay sharoit yaratadi va yolg‘izlik hissining oldini olishga xizmat qiladi.

Yolg‘izlik hissining shakllanishiga sabab bo‘luvchi yana bir muhim omil — bu oiladagi nizolar hisoblanadi. Ota-onalar o‘rtasidagi doimiy kelishmovchiliklar bolalarning emotsional holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Oiladagi nizolar bolalarda xavotir hissining ortishiga olib keladi va natijada ularda yolg‘izlik hissi shakllanishi mumkin.

Bizning ilmiy ishimizda olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oiladagi emotsional qo‘llab-quvvatlashning mavjudligi bolalarning psixologik barqarorligini ta’minlaydi. Agar bola o‘zini oilada himoyalangan va qadrlangan his etsa, unda yolg‘izlik hissining yuzaga kelish ehtimoli kamayadi. Shu sababli oiladagi sog‘lom psixologik muhit bolalarda yolg‘izlik hissining oldini olishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Bolalarda yolg‘izlik hissining shakllanish sabablarini o‘rganishda nafaqat individual va oilaviy omillarni, balki kengroq ijtimoiy muhitni ham hisobga olish zarur. Chunki bola rivojlanadigan ijtimoiy muhit uning psixologik rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu omillarni chuqur o‘rganish bolalarda yolg‘izlik hissining ijtimoiy va pedagogik omillarini tahlil qilish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bolalarda yolg‘izlik hissining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan yana biri — bu maktab muhiti hisoblanadi. Bola hayotining muhim qismi aynan maktab muhitida kechishi sababli, ushbu muhitning psixologik xususiyatlari uning emotsional rivojlanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Maktab jamoasida ijobiy psixologik muhitning mavjudligi bolalarning o‘zini erkin va ishonchli his qilishiga yordam beradi. Aksincha, salbiy psixologik muhit bolalarda yolg‘izlik hissining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun maktab muhiti bolalarning ijtimoiylashuv jarayonidagi o‘rnini alohida ta’kidlashni zarur deb hisoblaymiz. O‘qituvchilarning bolalarga bo‘lgan munosabati hamda sinfdagi psixologik muhit bolalarda yolg‘izlik hissining shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Agar bola o‘qituvchi tomonidan yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanmasa yoki tengdoshlar tomonidan rad etilsa, unda yolg‘izlik hissi shakllanish ehtimoli ortadi.

Bolalarning ijtimoiy rivojlanishida tengdoshlar bilan muloqot qilish muhim ahamiyatga ega ekanligini aytishimiz mumkin. Tengdoshlar bilan samarali munosabatlar o‘rnatish bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ularning ijtimoiy adaptasiyasiga yordam beradi.

Shuningdek, ayrim bolalarda tengdoshlar tomonidan rad etilish yoki masxara qilinish holatlari ham kuzatiladi. Bunday holatlar bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi va ularni ijtimoiy faoliyatdan chekinishga majbur qiladi. Natijada bola o‘zini jamoadan ajralgan holda his qiladi va bu holat uning ichki yolg‘izlik hissining kuchayishiga olib keladi.

Bolalarda yolg‘izlik hissining shakllanishiga ta’sir etuvchi zamonaviy omillardan biri — bu axborot texnologiyalarining keng qo‘llanilishidir. So‘nggi yillarda bolalar orasida mobil qurilmalar va internetdan foydalanish darajasi sezilarli darajada ortgan. Virtual muloqotning ortishi real ijtimoiy munosabatlarning

kamayishiga olib kelishi mumkin. Bolalarda real muloqot koʻnikmalarining yetarli darajada shakllanmasligi yolgʻizlik hissining kuchayishiga sabab boʻladi.

Bolalarda yolgʻizlik hissining shakllanish sabablarini oʻrganishda gender omillarini ham hisobga olish zarur. Ayrim tadqiqotlar natijalari shuni koʻrsatadiki, oʻgʻil bolalar va qiz bolalar yolgʻizlik hissini turlicha namoyon etishlari mumkin. Masalan, oʻgʻil bolalarda yolgʻizlik hissi koʻpincha tashqi xulq-atvorda, yaʼni agressiv yoki yopiq xulq shaklida namoyon boʻlishi mumkin. Qiz bolalarda esa ushbu hissiyot koʻproq emotsional sezgirlik va ichki kechinmalar orqali namoyon boʻlishi kuzatiladi [2.17 b].

Shuningdek, bolalarda yolgʻizlik hissining shakllanishiga oʻquv faoliyatidagi muvaffaqiyatsizliklar ham taʼsir koʻrsatishi mumkin. Oʻqish jarayonida doimiy qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalar oʻzlarini tengdoshlaridan ortda qolayotgan deb his qilishlari mumkin. Bu esa ularning oʻziga boʻlgan ishonchini pasaytiradi va yolgʻizlik hissining kuchayishiga olib keladi.

Bolalarda yolgʻizlik hissining shakllanish sabablarini oʻrganishda shaxsning individual-psixologik xususiyatlari ham muhim rol oʻynaydi. Masalan, tortinchoqlik, past kommunikativ faollik yoki yuqori sezgirlik kabi xususiyatlar bolalarning ijtimoiy muhitga moslashuvini qiyinlashtiradi. Ushbu holatlar esa yolgʻizlik hissining kuchayishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas.

Bizning ilmiy ishimizda olib borilgan nazariy tahlillar shuni koʻrsatadiki, bolalarda yolgʻizlik hissining shakllanishi koʻplab omillar — oilaviy, ijtimoiy, maktab va individual omillarning oʻzaro taʼsiri natijasida yuzaga keladi. Ushbu omillarni kompleks tarzda oʻrganish yolgʻizlik hissining mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi hamda keyingi bosqichlarda samarali psixokorreksion ishlarni tashkil etish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. — Москва: Педагогика, 2008.

2. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. — Москва: Смысл, 2004.

3. Выготский Л.С. Мышление и речь. — Москва: Лабиринт, 1999.

4. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. — Москва: Педагогика, 2006.

5. Дружинин В.Н. Психология общих способностей. — Санкт-Петербург: Питер, 2007.